

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

BOSH VAZIRI

**J.A. Qo‘chqorovga, A.J. Ramatovga, J.A. Xodjayevga,
Z.B. Mahkamovga, Sh.M. Sadikovga, R.V. Abduqodirovga**

**Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari,
xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar (ro‘yxat bo‘yicha)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda – Farmon) ma‘lumot va so‘zsiz ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmonga muvofiq:

qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari (keyingi o‘rinlarda – qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar) hamda Hukumat qarorlari ijrosini **nazorat qilishning samarali mexanizmlari** belgilangani;

davlat organlari va tashkilotlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari hamda boshqa tashkilotlarda (keyingi o‘rinlarda – davlat organlari va tashkilotlar) ijroni tashkil etishda **birinchi rahbarlarning mas‘uliyatini oshirish** qayd etilgani;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining ijro holatini baholash amaliyoti joriy etilgani **ko‘rsatib o‘tilsin.**

3. Davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari:

2025-yil 1-sentabrga qadar ijro intizomiga mas‘ul tarkibiy bo‘linmalarni alohida tuzilma sifatida bevosita birinchi rahbarlar bo‘ysunuviga o‘tkazish yuzasidan o‘z tuzilmalari va ichki hujjatlari qayta ko‘rib chiqilsin hamda natijasi bo‘yicha Adliya vazirligiga tahliliy ma‘lumotlar kiritilsin;

ijro intizomi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘zlarining rasmiy veb-sahifalarida joylashtirilishi va **har oyda** yangilab borilishi ta‘minlansin;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar hamda Hukumat qarorlari ijrosi holati bo‘yicha keng jamoatchilikka hisobot berib borishga **shaxsan mas‘ul etib belgilansin.**

Adliya vazirligi (Tashkulovga)

4. “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga (keyingi o‘rinlarda – “Ijro.gov.uz” tizimi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining farmoyishlari va topshiriqlari o‘z vaqtida hamda to‘liq kiritilishi, mas‘ul ijrochilar va bajarish muddatlari aniq belgilanishi hamda ularning belgilangan tartibda nazorat qilinishi ta‘minlansin.

5. Quyidagilar:

2025-yil 1-avgustga qadar Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha **nazorat rejasi**;

2025-yil 1-sentabrga qadar "Ijro.gov.uz" tizimi orqali Hukumat qarorlari ijrosini tashkil etish tartibi ishlab chiqilsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

6. 2025-yil 10-sentabrga qadar davlat organlari va tashkilotlar tomonidan ijro intizomiga mas'ul tarkibiy bo'linmalarini alohida tuzilma sifatida bevosita birinchi rahbarlar bo'ysunuviga o'tkazilganligi, mas'ul xodimlar haqida ma'lumot va boshqa tahliliy materiallar umumlashtirilgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

7. 2025-yil 1-oktabrdan boshlab Vazirlar Mahkamasi tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda "Ijro.gov.uz" tizimi orqali Hukumat qarorlari ijrosi bo'yicha nazorat va hisobdorlik tashkil etilsin.

8. Hisob palatasi bilan birgalikda:

2025-yil 1-avgustga qadar davlat organlari va tashkilotlarning ijro intizomiga mas'ul tarkibiy bo'linmalari xodimlari o'rtasida Farmonning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish bo'yicha **o'quv-amaliy seminari o'tkazilsin**;

2025-yil 25-oktabrga qadar qonunchilik hujjatlariga Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin.

Raqamli texnologiyalar vazirligi (Shermatovga)

9. 2025-yil 1-oktabrga qadar:

sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda "Ijro.gov.uz" tizimiga topshiriqlarni kiritishda ularning takroriyiligini aniqlash hamda ijro muddati yaqinlashayotgan topshiriqlar to'g'risida davlat organlari va tashkilotlarning birinchi rahbarlarini **avtomatik ravishda xabardor qilish**;

"Ijro.gov.uz" tizimiga davlat organlari va tashkilotlarning axborot tizimlarini bosqichma-bosqich **integratsiya qilish** ta'minlansin.

Vazirlar Mahkamasining tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga

10. Hisob palatasi, Adliya vazirligi hamda boshqa vazirlik va idoralar vakillaridan iborat tarkibda tuziladigan **Hududlarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o'rganib borish bo'yicha ishchi guruhlariga** ijro intizomini tashkil etishda yaqindan ko'maklashib borilsin.

11. Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini qat'iy nazoratga olgan holda, ularning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi hamda yuzaga kelayotgan muammoli masalalar hal etilishi ta'minlansin.

**Bosh vazir kotibiyati rahbari o‘rinbosari (Kalandarovga),
Kadrlar bo‘limi (Xaydarovga)**

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi PF–111-son Farmoniga asosan Hukumat ijro apparati va ijro etuvchi organlarning shtat tuzilmalarini qayta ko‘rib chiqish va maqbullashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishda Farmon bilan davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomiga mas’ul tarkibiy bo‘linmalar alohida tuzilma sifatida bevosita birinchi rahbarlar bo‘ysunuviga o‘tkazilganligi inobatga olinsin.

Nazorat va ijro intizomi bo‘limi (Galtemirov)

13. 2025-yil 10-avgustga qadar Adliya vazirligi bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasining tarkibiy bo‘linmalari xodimlariga Farmonning mazmun-mohiyatini, “Ijro.gov.uz” tizimida joriy qilingan yangiliklarni tushuntirish bo‘yicha o‘quv-amaliy seminar tashkil qilinsin.

14. Vazirlar Mahkamasi tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar hamda Hukumat qarorlari ijrosi nazorat qilinishini Farmon bilan belgilangan yangi tartibga qat’iy amal qilgan holda yo‘lga qo‘yilsin.

**N.D. Toychiyevga, D.N. Kalandarovga – muvofiqlashtirish
va ijrosini tashkil etish uchun**

Vazirlar Mahkamasining tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari –

**I. Tangriyevga, M. Jumaniyazovga, T. Rapikovga, Sh. Abidovga, F. Qosimovga,
N. Xalbutayevga, Z. Mutalovga, M. Yakubovga, R. Azimovga, B. Xadjixanovga,
A. Radjapovga, S. Yuldoshevga, D. Bekmirzayevga, A. Jumayevga, I. Niyazmuradovga,
J. Xaydarovga, J. Boliyevga, U. Yoqubovga, D. Ermatovga – ijro uchun**

Sh.Q. Galtemirovga – nazorat uchun



A. Aripov